

**YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA BO'LAJAK TARBIYA FANI
O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH ORQALI KASBIY
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.**

To'xtaboyeva Madina

*Nizomiy nomidagi O'Zmpu Pedagogika - psixologiya va inklyuziv
ta'lim fakulteti Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarning mustaqil ishini kadrlar tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni va uni tashkil etish haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, mustaqil ish, kompetensiya, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, motivatsiya, innovatsiya, keys, pedagogik-psixologik, bilim, malaka, ko'nikma.*

Annotation: *This article discusses the role of independent work of future pedagogy teachers in the formation of their professional competencies in the process of personnel training, as well as the organization of such work.*

Keywords: *education, independent work, competence, independent thinking, creative thinking, motivation, innovation, case study, pedagogical-psychological, knowledge, skill, ability.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль самостоятельной работы будущих преподавателей педагогики в формировании их профессиональных компетенций в процессе подготовки кадров, а также вопросы организации этой деятельности.*

Ключевые слова: *образование, самостоятельная работа, компетенция, самостоятельное мышление, творческое мышление, мотивация, инновация, кейс, педагогико-психологический, знание, умение, навык.*

Jahon iqtisodiyotidagi hozirgi tendensiyalar, yuqori malakali "inson kapitali" asosiy resursga aylangan "bilimlar iqtisodiyoti" ning rivojlanishi oliy ta'limning yangi sifatiga erishishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan ta'limning roli sezilarli darajada ortmoqda va ta'limda innovatsion yondashuvlar tobora ommalashib bormoqda, bunda asosiy e'tibor bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi tomonidan nafaqat ma'lum miqdordagi bilim va ko'nikmalarni olishga, balki tizimli to'plamni shakllantirishga ham qaratilgan. Inson faoliyatining turli sohalari – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot va boshqa muammo va vazifalarni hal qilish qobiliyati kompetensiyalarda namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonining shakli, lekin uning asosi, kasbiy mustaqillikni, bilimlarni tez yangilash sharoitida o'z-o'zini tarbiyalashga va uzluksiz o'rganishga tayyorlikni shakllantirish usuli bo'lishi kerak. Ta'lim to'g'risidagi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarorlari orqali kadrlar tayyorlashdagi mustaqil ishni o‘quv jarayonida uning ahamiyatini bilishimiz mumkin. “Bo‘ljak tarbiya fani o‘qituvchisining mustaqil ish mohiyatiga ko‘ra uslubiy va ilmiy bo‘lib, o‘qituvchi nazorati ostida o‘quv jarayonining bir qismi sifatida amalga oshiriladigan, rejalashtirilgan, individual yoki jamoaviy o‘quv va ilmiy ish hisoblanadi. Mustaqil ish o‘quv faoliyatining eng yuqori shakli sifatida qaraladi, u tabiatan uzviy bo‘lib, aslida o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklidir.”⁵Bo‘ljak tarbiya fani o‘qituvchisining mustaqil ishini bajarishda ularga motivatsiya berish juda muhim hisoblanadi. Ma‘lumki, motivatsiya bu shaxsni ma‘lum faoliyatni amalga oshirishda uni bajarishga undovchi omillar va harakatlar yig‘indisi hisoblanadi. Shu bilan birga, faoliyat, qoida tariqasida, polimotivatsiyalangan, ya‘ni bir vaqtning o‘zida bir nechta motivlar tomonidan qo‘zg‘atiladi. Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta‘lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,⁶degan fikrlari ham mustaqil O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e‘tibordan holi emas. Shunday ekan biz o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li oliy ta‘limda yangicha, ya‘ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Motivatsiya harakatga nisbatan uchta tartibga solish funksiyasini bajaradi: 1.Motivatsiya, ya‘ni odamning harakatga kirishishi uchun vosita impulsi yoki motivini berish. 2.Ma‘noli, ya‘ni faoliyatga chuqur shaxsiy tus berish ma‘nosi 3. Tashkil etish, ya‘ni maqsadni belgilash asosida, ongli motivlar motiv maqsadga aylangan.

Motivatsiya mustaqil ish muvaffaqiyatining muhim elementidir. Universitetda mustaqil ish tizimli, uzluksiz va murakkablashib borishi kerak. Fanlarni o‘qitish metodikasida mustaqil ishning murakkabligining uch darajasi mavjud: Mustaqil ishning reproduktiv (reproduktiv yoki o‘quv) darajasi, bunda boshqa darajalar uchun asoslar yaratiladi. Ushbu darajada yangi materialni o‘zlashtirish va mustahkamlash mavjud. Mustaqil ishning rekonstruktiv (o‘tish yoki yarim ijodiy) darajasi avvalgisidan kelib chiqadi. Ushbu bosqichda o‘quv materialini keyingi sintez bilan tahlil qilish kerak. Bu yerda olingan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘xshash vaziyatlarga o‘tkaziladi,

⁵ Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari //Kashunar ta‘limi. 2004.- № 3. – B.24.

⁶ Sh.M. Mirziyoyevning nutqlaridan. Manba: mudarrisziyo.uz — “Yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va intellektual salohiyatini oshirish masalalari”, 2022)

shuningdek, o'xshash vaziyatlarda bayonlami shakllantirish. Bu darajadagi mustaqil ish ko'proq aqliy faollik va ijodkorlikni talab qiladi. Mustaqil ishning ijodiy (ijodiy yoki izlanish) darajasi murakkabroq kommunikativ muammolarni hal qilishda izlanishni amalga oshirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan bog'liq. Bu yerda ijodkor shaxs va kasbiy mustaqillik shakllanadi. Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqbul shakllarini tanlab, o'qituvchi o'rganish uchun maksimal motivatsiyani ta'minlashga, topshiriq hajmini aniq belgilashga va har bir talabning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirish uchun optimal vaqtni hisoblashga intiladi. Vazifaning hajmini ko'pligi va haddan tashqari yuqori talablar mashg'ulot samaradorligini keskin pasaytiradi. Kompetent yondashuv talabdan mustaqil ish jarayonida bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash mustaqil ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. "Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) "bilim ko'nikma malakani oltita birlik (sektet) "bilim-ko'nikma-malaka-amaliy faoliyat tajribasi kompetensiya-kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi." ⁷L.M.Mitina pedagogik kompetentlik-deganda predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik, psixologik, muloqot, ko'nikma va malakasi, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo'lajak tarbiya fani mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar); kommunikativ

⁷ Muslimov N.A. Urazova M.B, Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka); pofessionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalda qanday mustaqil qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir. Maxsus pedagogik kompetensiya, pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq: ijtimoiy pedagogik kompetensiya, ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik, bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan, shaxsiy pedagogik kompetensiya; bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o'rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko'rib borish lozim.

Kompetentlikni baholash mezonlari kompetentlikning tarkibiy qismlari kompetentlikni baholash mezonlari:

1. Tayyorgarlik. Maxsus xususiyatlar, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o'rganish qobiliyati, tipologik xususiyatlar va boshqalar

2. Bilim. Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan o'rganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi

3. Tajriba. Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish

4. Munosabat. Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog'liq holda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi

5. Muntazamlilik. Kompetentlikka bog'liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat'iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog'liq, maqsadga erishishdagi to'siqlarni zabt etishga tayyorgarlik. "Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin: o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etish g'oyasi, kasbiy yo'l tanlash, turmush qurish, farzandli bo'lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o'z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo'lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko'nikishlar

hosil qilishga tayyorlik va boshqalar.”⁸ Darhaqiqat, insonning kompetentligini namoyish etishga tayyorgarlik darajasi nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki uning hayotiy qarashlari, mustaqil fikrlashi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ham chambarchas bog'liq. Ayniqsa, o'zini rivojlantirish, hayotda to'g'ri yo'l tanlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z hayoti uchun javobgarlikni his etish bugungi kunda har bir yosh uchun muhim mezonlardandir. Shu nuqtai nazardan, kompetentligini shakllantirish jarayonida shaxsning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytish lozimki shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim tizimida kompetentli yondoshuv ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ro'lida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo'nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an'anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta'lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo'ladi. Shunday qilib, mustaqil ishlash, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish o'zaro bog'liqdir.

Xulosa qilib shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, mustaqil ish o'quv jarayonining asosiga, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Muslimov N.A, Urazova M.B, Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

2.Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari //Kasbhunar ta'limi. 2004.- № 3. – B.24.

3.Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.

4.Raxmanova M.Q. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. Fan. Dokd... diss. T., 2023.-220b.

⁸ Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari, 2022. -№3/3,B. 39-43.

5. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari „ 2022. -№3/3,В. 39-43.

6. Yakubjonovna, N. M., & Shamsitdinovna, M. A. (2024). Bo'lajak o'qituvchilarni rivojlantirishning pedagogik kompetentlik sifatlarini pedagogik -psixologik usullari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 47(3), 105-7.

7. Yakubjonovna, N. M., & Farhod og'li, X. A. (2024). Yosh avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligida o'qituvchining kasbiy kompetentligi oshirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 47(3), 149-153.